

IQTISODIY INQIROZ, KELIB CHIQISH SABABLARI VA O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY MASALALAR VA KO'RILGAN CHORA TADBIRLAR

Razaxbayev Diyorbek Namazbay o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti, Agrologistika va biznes fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Yusupov Avazbek O'ktam o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Akramov Shoxruxbek Azizbek o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti, Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Mirzahamdamaova Shohsanam Komiljon qizi

Toshkent davlat agrar universiteti, O'simliklarni himoya qilish, agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7442612>

Anotatsiya. *Iqtisodiyot aholi yashashi, yaxshi hayot kechirishi uchun kerakli sohalardan biri hisoblanib kelmoqda ekan, bu sohaga oid tushunchalarga ega bo'lish har bir insonning ijtimoiy bilishi kerak bo'lgan bilimlariga aylanib kelmoqda. Shunday asosiy masalalardan biri iqtisodiy inqiroz va uning sabablari bo'lsa, dolzarbliq inqirozga qarshi chora tadbirlar ko'rinishini aniqlashdir. Jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan har qanday tugun, turli xil xurujlar ko'plab davlatlar qatorida bizning mamlakatni ham chetlab o'tmaydi. Bu holatni oldini olish uchun qanday choralar ko'rilgan va qanday masalalar oldimizda turganligini bilib olish har bir inson uchun daxldor.*

Kalit so'zlar: *Inqiroz, tanazzul, ob'yekt, differensial, kompleks, instirument, diversifikatsiya, iqtisodiy o'sish, shok terapiyasi, pragnoz, kreativ, strategiya.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ КРИЗИС, ПРИЧИНЫ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПРИНИМАЕМЫЕ МЕРЫ

Аннотация. *Поскольку экономика считается одной из сфер, необходимых населению для жизни и благополучной жизни, наличие понятий, связанных с этой сферой, становится общественным знанием каждого человека. Одним из основных вопросов является определение экономического кризиса и его причин, неотложность антикризисных мер. Ни один узел, различные атаки, возникшие в мировой экономике, не обойдут стороной нашу страну среди многих стран. Всем важно знать, какие меры были предприняты для предотвращения этой ситуации и какие проблемы стоят перед нами.*

Ключевые слова: *кризис, спад, объект, дифференциал, комплекс, инструмент, диверсификация, экономический рост, шоковая терапия, прогноз, креатив, стратегия.*

ECONOMIC CRISIS, CAUSES AND ECONOMIC PROBLEMS IN UZBEKISTAN AND ACTIONS TAKEN

Abstract. *Since the economy is considered one of the areas necessary for the population to live and prosper, the existence of concepts related to this area becomes the public knowledge of every person. One of the main issues is the definition of the economic crisis and its causes, the urgency of anti-crisis measures. Not a single node, various attacks that have arisen in the global economy will bypass our country among many countries. It is important for everyone to know what measures have been taken to prevent this situation and what problems we face.*

Keywords: *crisis, recession, object, differential, complex, instrument, diversification, economic growth, shock therapy, forecast, creativity, strategy.*

Inqiroz — taraqqiyotda orqaga ketish, tanazzul. Har qanday ob'yekt o'zining rivojlanishi mobaynida paydo bo'lish, ulg'ayish, pasayish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Har qanday tizim (ob'yekt)ning nisbatan yuqori darajada shakllangan holatidan quyi darajadagi holatga o'tish jarayoni inqiroz davri deyiladi. Ijtimoiy tizimlardagi inqirozlarga differensial yondashish kerak. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalaridagi inqirozlar, odatda, mustaqil ro'y beradi, ba'zan esa hammasi kompleks tarzda baravar bo'ladi.

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti oxirgi 50 yilda to'rt marotaba tashqi qarz to'loqini boshidan kechirdi. Shundan, dastlabki uchtasi inqirozlar bilan yakunlandi. Ularning oxirgisi sifatida 2010 yildan buyon rivojlanayotgan mamlakatlarda qarz to'loqini - o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. 2018 yilda jami qarz 54 foiz punktga oshdi. Joriy past foizli stavkalar yuqori qarz muammolarini bartaraf etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Hozirgi kunga qadar iqtisodiy inqirozlar turli moliyaviy instrumentlarning nobarqarorligidan kelib chiqqan bo'lsa, joriy davrdagi inqirozni yuzaga kelishi tamomila o'zgacha tus olganligi bilan farqlanadi. Hozir iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablarini o'rganar ekanmiz, 2008-yilgi jahon iqtisodiy inqiroziga to'xtalamiz.

Butun bir rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga o'zining ta'sirini ko'rsatgan 2008- yilgi inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi.

Hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining

hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bogʻliq.

Toʻrtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish koʻp jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uygʻunligiga bogʻliq.

2008 yil noyabr oyida Vashingtonda, jahon yalpi mahsulotining 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida boʻlib oʻtgan sammit global moliyaviy inqirozning koʻlami tobora kengayib borayotganini tasdiqladi.

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga taʼsiri, undan koʻriladigan zararning darajasi va koʻlami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechogʻliq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bogʻliq.

Iqtisodiy inqirozning kelib chiqish mohiyati har qanday mamlakat, shu jumladan industrial rivojlanmagan mamlakatlar ham iqtisodiy oʻsishga, hamda toʻliq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi, ammo uzoq muddatli iqtisodiy oʻsish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy barqarorlik davrlari bilan uzulib turadi. Iqtisodiy oʻsish ketidan doimo inqiroz kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan iqtisodiy qonunlarning oʻzgartirib boʻlmaydigan taʼsiri ostida takror ishlab chiqarish harakatida uzilishlar paydo boʻladi va bu uzilish iqtisodiy nomutanosibliklarning keskin shaklida nomayon boʻlishidir. Iqtisodiy sikl deganda, odatda ishlab chiqarishning bir iqtisodiy holatidan, yoki bir inqirozdan ikkinchisi boshlanguncha qadar takrorlanib turadigan toʻlqinsimon harakati tushiniladi. Inqiroz ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi va siklning qayd etuvchi ifodasidir. U bir siklni nihoyasiga yetkazib,

yana

muqarrar

ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi, inqiroz vaziyatda asosiy kapitalning ortiqcha jamgʻarilishi uning hamma funksional shakllarida nomoyon boʻladi. Inqirozdan keyin turgʻunlik keladi, uning davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoit vujudga

kelishi

nihoyasiga

yetadi.

Jonlanish fazosining boshlanishi ozmi-koʻpmi darajada barqaror ishlab chiqarishning kengayishiga oʻtishni bildiradi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar boʻlib qoladi. Inqiroz fazasida ishlab chiqarish va bandlik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoiliga berilmaydi. Inqirozning qoʻyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik oʻzining eng past darajasiga erishishi bilan karakterlanadi. Iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi. Inqirozning asosiy sababi takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish uning natijalarini oʻzlashtirish oʻrtasidagi nomutanosiblik boʻlib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarda nomayon boʻladi. Ishlab chiqarish bilan isteʼmol talab va taklif oʻrtasidagi vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqishi imkoniyatini saqlaydi.

Hozirgi kunda baʼzi rivojlanayotgan mamlakatlar dollarning oltin-valuta zahirasidagi ulushini kamaytira boshladilar va tovarlarni eksport va import qilish hisob-kitoblarini milliy valutada yoki yevroda amalga oshirmoqda. AQSH tashqi siyosatiga itoat qilmaydigan har qanday “istalmagan” davlatga iqtisodiy sanksiyalar qoʻyishi, jumladan, “istalmagan” davlatlar uchun dollar bilan operatsiyalarni taqiqlashi mumkin. Shuningdek, koʻplab mamlakatlar markaziy banklarining davlat raqamli valutarini yaratish uchun loyihalari tufayli ularning

aylanmasi 2021 yil boshida 2 trln.dollarga yetdi va kriptovalyuta bozorining tez o‘shishi oqibatida allaqachon jamg‘arma sifatida dollarning ishonililigiga putur yetmoqda. Pul muomalasidagi tektonik siljishlar butun dunyo markaziy banklarini kriptovalyutalarning rivojlanish tendensiyasini kuzatishga va blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda davlat raqamli valyutalarini chiqarishga majbur qilmoqda. Bunday valyutalar to‘lov va hisob -kitob qilish texnologiyalarini ancha soddalashtiradi va agar kriptovalyutalarning joriy etilishi tufayli boshqa davlatlar dollar bilan to‘lovlardan ommaviy ravishda voz kecha boshlasa, dollar qulashi, bu esa katta ehtimol bilan jahon iqtisodiyotidagi o‘ta og‘ir “Tepki” ga aylanishi mumkin.

Bizning davlatda iqtisodiy inqirozga qarshi fundamental choralar ko‘rib kelinmoqda. 2008-2012 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy chora tadbirlarni ko‘ramizmi yoki taraqqiyotning “O‘zbek moduli” haqida so‘z yuritamizmi, balki “Harakatlar strategiyasi” tamoyillarini taxlil qilamizmi iqtisodiyotimizdagi munosabatlarni sezilarli darajada uzoq o‘ylangan reja asosida talofatlarsiz kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Mustaqillik davrlaridagi “Shok terapiyasi” kabi bizga taklif etilgan yo‘llar o‘rniga biz o‘zimizning o‘ziga xos yo‘limizni belgilab oldik va shu rejalar asosida harakat olib bormoqdamiz. Iqtisodiyotning bir maromda o‘zgarishi o‘z navbatida yagona islohotchi qarashlarini talab qiladi. Bizning belgilab olgan yo‘limizda ham davlat bosh islohotchi vazifasini bajaradi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish bu davlatning imkoniyatlari cheklanganligi, yoxud iqtisodiyotni yaxshi bilmasligidan emas, balki uzoqqa mo‘ljallangan iqtisodiy, strategik yo‘li borligidandir. Davlatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish shu orqali aholi qatlamlarining ko‘p qismini yaxshi hayot kechirish tarziga o‘tishini ta‘minlash keskin inqirozlarning oldini oluvchi vosita bo‘lib kelmoqda deb o‘ylashimiz mumkin. Bugungi kunda turli xil imkoniyatlar yetarli bo‘lganligi davlat ruxsatlarining berilishi tashqi investitsiyalar soni va miqdorini keng ko‘lamda oshirib kelmoqda. Iqtisodiy o‘shish va prognozlash o‘z navbatida iqtisodiy bilimlarni talab etar ekan yaxshi kadrlar masalasi ham iqtisodiy inqiroz kutilayotgan davrda uning oldini olishning zarur choralaridan biri ekanligini bilishimiz mumkin. Dunyo milliarderlarining fikricha pul topish va uni ko‘paytirish insonning keng salohiyati va dunyo qarashi bilan birgalikda teran va kreativ g‘oyalariga bog‘liq ekan. Agarda shu insonlardagi mablag‘ni oddiy qatlam aholisiga tenglashtirilganda ham bu mablag‘lar ularning hayotini yaxshilatib qo‘ymas edi. Toki ularning iqtisodiyot, inqiroz, jamg‘arish, budjet, daromad va xarajat kabi masalalarda bilimlari yetmas ekan ular bu mablag‘larni shunchaki sarflab yuborishadi. Aslida ayni qo‘rqinchili inqiroz va iqtisodiyotning o‘shish mushkulligi ham ana shunda.

Aholi orasida iqtisodiy bilimlarni oshirish va iqtisodiy savodxonligini yaxshilash, daromaddan ko‘p qismini foydaga aylantirish masalalarini bilish iqtisodiyotda vujudga keladigan har qanday holatga qarshi turishning fundamental himoyasi hisoblanadi. Inqirozga avvalo ko‘p hollarda pulning qadrsizlanishi va narxlarning keskin oshishi, valutadagi o‘zgarishlar asosiy sabablardan biri bo‘lib kelmoqda.

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020-yilning yanvar-oktyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy holati:

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi – 98,4 %

Chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati – 101,2 %

Tashqi savdo aylanmasi o‘shish sur‘ati – 87,6 %

shundan: eksportning o‘shish sur‘ati – 92,6 %

importning o'sish sur'ati – 84,0 %

Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati – 109,1 %

Xizmatlar hajmining o'sish sur'ati – 102,2 %

Ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni – 424395 ta

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni – 398771 ta

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni – 490 718 ta

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni – 462 584 ta.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyot sohasida kichik xususiy tadbirkorlikga va ularga investitsiya kiritib kengaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada qonun hujjatlarida bir qancha imtiyozlar va erkinliklar belgilab berilgan. Xalqni shu tariqa boy qilish va ularning yashash sharoitlarini yaxshilash, shu bilan birgalikda kuchli iqtisodiy asoslarga ega b'olish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston tabiiy boyliklarga boy mamlakat, shu o'rinda ulardan keng tarmoqli foydalanish asoslari bo'yicha ham bir qancha ishlar qilinmoqda. Iqtisodiy mustaqillik eng muhimi shunday ekan iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish asosiy o'rinda turadi.

REFERENCES

1. "Iqtisodiy bilim asoslari" Q.Yo'ldoshev, Q.Muftaydinov, Toshkent, "O'qituvchi" 1999 y. (2-nashr)
2. "Bozor iqtisodiyoti asoslari" M.Rasulov. Toshkent, "O'zbekiston" 1999 y.
3. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan maruzalar matni, U.V.G'afurov, O.A.Norboyev, S.R.Berdiyev, Toshkent 2013 y.
4. "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" o'quv qo'llama, X.M.Mamatqulov, Toshkent 2008 y.
5. www.amerikaovozi.com
6. <https://hozir.org>
7. <https://1ppa.ru>
8. <https://lex.uz>
9. <https://review.uz>
10. <https://xs.uz>
11. <https://deposit.uz>
12. <http://uz.m.wikipedia.org>